

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.G.Sabirdinov	
O'zbek tarixiy romani: Oybek va Qodiriy	6
G.M.Oripova	
Ayol ijodkorlar she'riyatida daraxt obrazi tasviri.....	9
M.A.Jo'rayeva	
Munavvar Qori Abdurashidxonov ijodida safar janri	13
G.Muhammadjonova	
Hayot haqiqati, tarixiy haqiqat va badiiy idrok.....	17
I.A.Эшонқулов	
Тавсифи мушаххаси тазкираҳои Ҳашмати Бухорой.....	21
B.X.Murtazoyev, F.O.Hafizova	
"Bobotog"essesida peyzaj: flora tasvirida badiiylik.....	28
I.A.Эшонқулов,З.П.Аҳмедҷонова	
Ситоиши хирад ва хирадгустарӣ дар "Шоҳнома"-и Ҳаким Фирдавсӣ	34
D.T.Musayeva	
Elizabet Gaskel ijodiga nazar	39
H.H.Қаюмов	
Муаммои шинохти санъати ташхис дар поэтикаи мумтози форсу тоҷик.....	42
Sh.T.Ibragimov	
"Babur the tiger" romani o'zbekcha tarjimasida metafora ifodasi	47
J.T.Ibragimov	
"Qutadg'u bilig" istioralarining poetik o'ziga xosliklari xususida chuqur mulohaza.....	55
A.A.Akbarov	
Vatanga muhabbatning lirik ifodasi	61

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova	
Farg'ona davlat universiteti tilshunosligi: kecha va bugun	66
Г.М.Хошимов, М.Г.Хошимов, Н.А.Абдуллаева, Д.Ш.Назарова, Д.А.Ахмедова	
Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок.....	71
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sifat turkumiga oid forsiy leksemalar xususida	81
A.B.Uralov	
Ayrim kengaygan shakllar taraqqiyoti hamda ularda nomutanosibliklar	86
Z.A.Davlataliyeva	
Ingliz tili darslarida talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmuni, shakli va vositalari.....	90
H.A.Абдуллаева	
Сопоставительное изучение провербем, вербализующих концептуальную оппозицию «ум/глупость» в английском и русском языках	95
H.A.Отахонова	
Проблемы общей теории и классификации лингвокультурам	100
B.B.G'aprov	
Ingliz gazeta sarlavhalarining o'ziga xos xususiyatlari hamda ularda fe'l komponentli kollokatsiyalarning qo'llanilishi.....	106
D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova	
Siddiq Mo'minning "Buyuk Temur avlodi" nomli she'rida pretsedent nom tahlili.....	112
N.Fidan	
Ellipsis in English text linguistics	115
M.O.Qulmamatova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "boylik/wealth va kambag'allik/poverty" konseptlarining o'xshashlik va farqli jihatlari.....	120
N.X.Boboqulova	
Ingliz va o'zbek tillarida head/bosh somatik komponentli maqollarning konseptual tahlili	124



UO'K: 811.211.1'37:821.512.133-1

NAVOIYNING "SADDI ISKANDARIY" DOSTONIDA SIFAT TURKUMIGA OID FORSIY LKSEMALAR XUSUSIDA**О ПЕРСИДСКИХ ЛЕКСЕМАХ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ПРИЛАГАТЕЛЬНЫМ В ЭПОСЕ "САДДИ ИСКАНДАРИ"****ABOUT PERSIAN LEXEMES RELATED TO THE ADJECTIVE CATEGORY IN THE EPIC "SADDI ISKANDARIY"****Alimova Zarifaxon Vaxobovna** 

Farg'ona davlat universiteti, tilshunoslik kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida qo'llanilgan forsiy sifatlarning xususida so'z boradi. Asarda sifati turkumiga oid forsiy leksemalarining etimologik xususiyatlari, leksik ma'nolari, forsiy-tojikcha izohli lug'atlarga asoslanganligi, boshqa manbalardagi izohlarga taqqoslanganligi, forsiy sifatlarning Navoiy asarlari izohli lug'atidagi talqinlari yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. Sifat turkumiga tegishli forsiy leksemalarni tahlil qilish maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Maqolada keltirilgan forsiy sifatlarning sinonimlari, ot turkumidan yasalgan sifatlarning haqida ham so'z boradi.

Abstract

This article discusses the Persian adjectives used in Alisher Navoi's epic poem "Saddi Iskandariy". The work presents information on the etymological features of Persian lexemes related to the adjective category, their lexical meanings, their basis in Persian-Tajik explanatory dictionaries, comparison with explanations in other sources, and explanations of Persian adjectives in the explanatory dictionary of Navoi's works. The main goal of the article is to analyze Persian lexemes related to the adjective category. The article also discusses the synonyms of the Persian adjectives mentioned in the article, as well as adjectives formed from the noun category.

Аннотация

В данной статье идет речь о персидских прилагательных, использованных в эпосе Алишера Навои «Садди Искандари». В работе приведены сведения об этимологической характеристике персидских прилагательных, их лексическом значении, о том, что они основаны на персидско-таджикских толковых словарях, их сравнении с пояснениями из других источников, а также пояснениями персидских прилагательных в толковом словаре произведений Навои. Основная цель статьи – проанализировать персидские лексемы, относящиеся к категории прилагательных. Также в статье говорится о синонимах персидских прилагательных и существительных.

Kalit so'zlar: sifati so'z turkumi, forsiy sifatlari, forsiy sinonimlar, sifatlardan ot hosil qilinishi, "yo-ye masdari", mavhum tushunchaning ifodalanishi

Key words: adjectives, Persian adjectives, Persian synonyms, formation of nouns from adjectives, "yo-ye masdari", expression of an abstract concept

Ключевые слова: прилагательные, персидские прилагательные, персидские синонимы, образование существительных от прилагательных, «йо-йе масдари», выражение абстрактного понятия.

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti asoschisi, buyuk so'z sultoni Alisher Navoiyning ijodiy merosi hozirga qadar o'rganilmoqda. O.Sharafiddinov shoir hayoti va ijodiga bag'ishlab yozgan "Alisher Navoiy" nomli kitobida shunday satrlar bitadi: "Uning nomi o'z davridayoq XV-XVI asrlarda yozilgan barcha tarixiy asarlardan o'rin olgan. Navoiy haqida ma'lumotlar beruvchi asarlardan eng eskisi Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shuaro" asaridir. Bu tazkira Navoiyning hayot chog'larida 1487-yilda yozilgan bo'lib, G'arb va Sharqda mashhurdir" [4, 10].

Navoiy haqida uning ko'p zamondoshlari, buyuk muarrixlar muhim ma'lumotlar keltirib o'tganlar, u haqda nodir asarlar yozganlar. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari ham shular jumlasidandir. Garchi Bobur Navoiy bilan yuzma-yuz ko'rishmagan bo'lsa-da, so'z

mulkining sultoni bilan maktub orqali tanishgan edi. Bobur Navoiyning asarlarini sidqidildan mutolaa qilar, g'azallarini yod olar edi.

O.Sharafiddinov ta'kidlashicha, "Hirotlik Zayniddin Mahmud Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe" nomli asari ham Alisher Navoiy to'g'risidagi xotiralar, uning suhbatlari va qatnashgan majlislari, kishilar bilan muomalasi to'g'risidagi muhim faktlarni o'z ichiga olgan bo'lib, ko'p izlanuvchilar tomonidan foydalanilmay qolgandir"[4,11].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillari hamisha Alisher Navoiy ijodidagi eng yaxshi an'analarni, ulug' g'oyalarni, yuqori badiiy texnikani o'rganib, o'zlashtirib kelganlar. Alisher Navoiyning o'lmas ijodiy merosini o'rganishda S.G'aniyeva, Yo.Is'hoqov, I.Haqqul, B.Abdullayev, A.Hayitmetov, A.Qayumov, A.Hojimuhamedov, H.Jo'rayev kabi adabiyotshunoslar katta xizmat qilganlar. O'zbek tilshunosligida B.Bafoev, E.Umarov, S.Ashirboyev, A.Nishonov, F.Hayitmetov, A.Rustamov, N.Umarova kabi ko'plab olimlar Navoiy asarlarini ilmiy jihatdan tadqiq etganlar.

Navoiyshunoslikka o'zining munosib hissasini qo'shgan ulamolar safida Olim Sharafiddinovning nomini alohida ta'kidlash joiz. O.Sharafiddinov Navoiy hayoti va ijodiga doir yaratgan monografiyasi uning o'zbek mumtoz adabiyoti sohasidagi tadqiqotlardan eng a'losi, desak mubolag'a bo'lmaydi. O.Sharafiddinov Navoiyning 500 yillik yubileyiga tayyorgarlik davrida Navoiy merosi, uning davri bilan shug'ullandi. U 1938-1941-yillarda Navoiy yubileyi qo'mitasining ilmiy xodimi bo'lib ishladi. U paytlarda Navoiy ijodi hali etarli darajada ommalashtirilmagan, merosi atroflicha tadqiq etilmagan edi. O.Sharafiddinov Navoiyning ilmiy va ijodiy merosini o'rganishda M.Nikitskiy, B.Bartold va boshqa sharqshunoslarning ishiga tayandi. U. Mirxondning "Ravzat us-safo", Xondamirning "Habib us-siyar", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkiratush-shauro", Boburning "Boburnoma", F.Vosifiyning "Badoe ul-vaqoe" kabi asarlarini o'rganib chiqdi [4,5].

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizning ushbu maqolamiz Navoiyning "Xamsa" dostonidan o'rin olgan "Saddi Iskandariy"da uchragan sifat turkumiga oid forsiy leksemalar tahliliga bag'ishlanadi. Ma'lumki, "Saddi Iskandariy" dostonida boshqa so'z turkumlari singari sifat turkumli forsiy leksemalar ham talaygina.

Dalir (daler)– دلیر sifat turkumiga oid leksema bo'lib, "qo'rqmas", "botir", "sheryurak" kabi ma'nolarni ifodalaydi. ANATILda "dalir" shaklida yozilgan mazkur so'z yuqoridagi ma'nolar orqali izohlangan. "Saddi Iskandariy" dostonidan keltirilgan baytda mazkur leksemaning *daler* shakli qo'llangan:

Qochib Sher etgan zamon ul daler,

Qari tulku ul nav'kim etsa sher (Saddi Iskandariy, 20-bet).

Ma'nosi: "Sherni ko'rgan qari tulki qanday ahvolga tushsa, pahlavonimiz etib kelgach, arslon ham shu ko'ygga tushib qoldi" (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 21-bet).

FTZTda "daler" leksemasining yuqoridagi ma'nolari bilan birga "shijoatli", "jur'atli" kabi ma'nolari ham keltirilgan (FTZT, 1-jild, 402-bet). PRSda ham "dalir" leksemasining yuqorida keltirilgan barcha ma'nolari mavjud (PRS, 1-jild, 658-bet).

Devonavash – دیوانه sifat turkumiga oid leksema bo'lib, Navoiy asarlari izohli lug'atida ushbu so'zning quyidagi ma'nolari keltirilgan: *devonaga o'xshash*, *devonavash*, *devonanamo* (ANATIL, 1-jild, 481-bet).

Ki, Jomiyg'a o'zni qilib jur'akash,

So'z aylay ado, mastu devonavash (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Ma'nosi: *Jomiy bilan birga may ichishib, men ham mast-u devonalardek otashin so'z yuritay* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet).

ANATILda shoirning "Farhod va Shirin" dostonida "devonavash" so'zi ishtirok etgan quyidagi bayt ham keltirilgan:

Junundin aqlkush bal dardkash ham,

Pari ruxsora, bal devonavash ham (Farhod va Shirin, ANATIL, 1-jild, 37-bet).

Dilpazir– دلپزیر sifat turkumiga oid so'z bo'lib, "yoqimli", "go'zal", "ma'qul", "ko'ngildagidek", "xush keluvchi" kabi ma'nolarni ifodalaydi (ANATIL, 1-jild, 489-bet).

Borin aytmoq gar emas dilpazir,

Vale sharhi maqsuddin yo'q guzir (Saddi Iskandariy, 40-bet).

TILSHUNOSLIK

Ma'nosi: *Buning barchasini aytish uncha yoqimli bo'lmasa ham, lekin izohlash maqsadga muvofiqdir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 42-bet).

O'TELda "*dilpazir*" leksemasiga quyidagicha izoh beriladi: Bu sifat "*dil*" otiga "*kutib ol*" ma'nosini anglatadigan "*paziro'ftan*" fe'lining "*pazir*" hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, "*ochiq ko'ngil bilan kutib oladigan*" ma'nosini anglatadi [1,88]. Bundan ko'rinadiki, O'TELda *dilpazir* leksemasining "*yoqimli*", "*go'zal*", "*ma'qul*" ma'nolari keltirilmagan. FTZT [3,450] hamda PRSda [2, 653] *dilpazir* leksemasining "*yoqimli*", "*go'zal*", "*ma'qul*" ma'nolari ham uchraydi.

Farxandal/farxunda - فرخونده sifat turkumli leksema bo'lib, "*qutluq*", "*baxtli*", "*saodatli*" kabi ma'nolarni ifodalaydi (ANATIL, 3-jild, 330-bet).

Ayog'ingga tayreki afgandadur,

Agar chug'z bo'lsunki, farxandadur (Saddi Iskandariy, 35-bet).

Ma'nosi: *Oyog'ing ostida senga qaram bo'lib yotgan qush hatto boyo'g'li bo'lsa ham baxtlidir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 38-bet).

PRSda ushbu leksema *farxo'nde* tarzida ifodalanib, keltirilgan barcha ma'nolarni o'z ichiga olgan [2,227]. FTZTda esa *farxunda* leksemasining yuqoridagi ma'nolari bilan bir qatorda "*muborak*", "*yaxshilik*" kabi ma'nolari ham keltirilgan [3,393].

Ki: «Bu farruxoyinu **farxunda** xayl,

Qilurlar dame ixtilotingga mayl» (Saddi Iskandariy, 457-bet).

Jovid جاويد so'zi sifat turkumiga oid bo'lib, *doimiy, hamisha, abadiy, mangu* kabi ma'nolarni ifodalaydi. ANATILda ushbu so'zning qo'shma fe'l ko'rinishidagi *jovid bo'l-o'l-* shakli ham uchraydi va o'zbek tiliga *doimiy bo'lmoq, abadiy qilmoq* deya tarjima qilinadi (ANATIL, 1-jild, 582-bet). Fors-tojik tilida ushbu so'z orqali o'g'il bolalar ismi ham ifodalanishi izohlangan [2,428].

Bu gardun aro tab'i xurshid o'lub,

Aning nuri olamda jovid o'lub (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *Bu osmonda mavqei xurshidi tobondek bo'lib, u taratgan nur olamda abadiy so'nmaydi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

Asarda *jovid* so'zi bilan bog'liq *jovidoniy* so'zi ham uchraydi. Ma'lumki, fors-tojik tilida sifat, ot va boshqa turkumdagi so'zlar oxiriga urg'uli bir yo harfi qo'shish orqali ulardan mavhum ma'noni ifodalovchi ot hosil qilinadi. Bu yo harfi fors tili grammatikasida yo-ye masdari deyiladi. Masalan: *bad* بد - *yomon*, *badi* بدی - *yomonlik*; *javon* جوان - *yosh*, *javoni* جوانی - *yoshlik* kabi [6,199]. Shular sirasiga *jovidoniy* جاويدانى so'zi ham kiradi va o'zbek tiliga *abadiylik, mangulik* deb tarjima qilinadi (ANATIL, 1-jild, 582-bet). Forscha-ruscha lug'atda ham جاودانى leksemasi *abadiylik, mangulik* deya izohlangan [2,428].

Labolab لابلاب sifat turkumiga tegishli leksema bo'lib, *liq to'la, etarli darajada; kam-ko'stsiz; barobar; silliq* kabi ma'nolari mavjud (ANATIL, 2-jild, 120-bet).

Bu sarmoyadin bizga kome etur,

Labolab mayi vasli Jomiy etur (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Ma'nosi: *Ey tangrim, Jomiy fazilatlaridan bizni ham bahramand et, uning visol mayidan to'yib ichishni bizga ham nasib ayla* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet).

Lavand لوند leksemasi sifat turkumiga oid bo'lib, *bo'shang, ishyoqmas, dangasa, yalqov, tanbal* kabi ma'nolarni ifodalaydi (ANATIL, 2-jild, 120-bet).

Havo andoq aylabdur oni lavand,

Tarab tanbalu, komu g'aflat tanand (Saddi Iskandariy, 24-bet).

Ma'nosi: *...lekin battarroq yalqovlashib, bo'sh qolsam yotib uxlashning payida bo'lib qoldim* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet).

Nuhuft نهفت sifat turkumiga oid leksema bo'lib, *yashirin, pinhon* kabi ma'nolari mavjud (ANATIL, 2-jild, 494-bet).

Tikon sorikim qo'l uzotur nuhuft,

Qo'lig'a kirar g'unchai noshuguft (Saddi Iskandariy, 37-bet).

Ma'nosi: *U ittifoqo tikanga qo'l uzatsa, qo'lga hali ochilmagan g'uncha tutiladi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 40-bet). Nasriy bayondan ko'rinadiki, *no'ho'ft* so'zi *ittifoqo* deya tarjima qilingan.

Noshuguft ناشگفت sifat turkumiga oid leksema bo'lib, *ochilmagan* deya izohlanadi (ANATIL, 2-jild, 486-bet). Yuqorida *no'ho'ft* so'zi ishtirok etgan baytda *noshuguft-ochilmagan* so'ziga misol keltirilgan. Saddi Iskandariy asarida *noshuguft* so'zi bir marta qo'llanilgan.

Nokosta ناکاسته sifat turkumiga oid leksema bo'lib, *to'lin*, *to'liq* ma'nolarini ifodalaydi. ANATILda mazkur so'z oy so'zi bilan birga kelishi ta'kidlanadi: *mohi nokosta – to'lin oy* (ANATIL, 2-jild, 473-bet). FTZTDa *nokosta* leksemasining yuqoridagi ma'nolaridan tashqari *kam bo'lmagan*, *nuqsansiz* kabi ma'nolari ham uchraydi [3,929]. Forscha-ruscha lug'atda (PRSDa) esa *nokosta* so'zi uchramaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ba'zan ayrim old qo'shimchali leksemalar forscha lug'atlarda kamdan-kam uchraydi. Aksincha, old qo'shimchasiz shakli ko'proq uchraydi [5,911]. **Nokosta** leksemasining ham *kosta* کاسته (*koste*) shakli mavjud bo'lib, uning ma'nosi *kichraytirilgan*, *kamaytirilgan* demakdir. Bundan ko'rinadiki, *kosta* (*koste*) leksemasi o'tgan zamon sifatdoshidir va u *kostan* کاستن – *kichraytirmoq*, *kamaytirmoq* fe'lidan olingan [2,295].

*Berib nuktadonlig' fasohat anga,
Yasab nuktaronlig' balog'at anga.
Lutufdin yuzin aylab orosta,*

Bo'lub, o'ylakim mohi nokosta (Saddi Iskandariy, 48-bet).

Ma'nosi: *Nozik fahmlilik unga ravonlik baxsh etib, nozik ma'nolar uning etukligini ta'minlasa, yuzini latofat bilan bezab, xuddi to'lin oydek bekam-u ko'st kamolga ega bo'lsa...* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 32-bet).

ANATILda "Saddi Iskandariy" dostonidan *nokosta* so'zi ishtirokida quyidagi bayt ham keltirilgan:

*Har otlig' kelib naxli orosta,
Dema naxlkim mohi nokosta* (ANATIL, 473-bet)

Nopadidor ناپدیدار sifat turkumiga oid leksema bo'lib, *ko'rinmaydigan*, *sezilmaydigan* kabi ma'nolarni ifodalaydi (ANATIL, 2-jild, 480-bet). Forscha-ruscha lug'atda *nopadidor* so'zining ANATILda izohlangan ma'nolaridan tashqari *noaniq*, *noma'lum* kabi ma'nolari ham keltirilgan [2,596]. FTZTD esa ushbu leksema uchramaydi.

Shuru'i dog'i nopadidor o'lub

Ki, tag'yir vaz'ig'a dushvor o'lub (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 44-bet).

Ma'nosi: *Bu ishni boshlab yuborish ham qiyin bo'ldi. Uning tuzilishini-tartibini bir rejaga solib olish ham oson bo'lmadi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 47-bet).

Zabun زبون sifat turkumiga oid leksema bo'lib, ANATILda quyidagi ma'nolari keltirilgan:

1. Ojiz, notavon, zaif, bechora, ezilgan, xorlangan.

2. Mag'lub, engilgan.

3. Arzimas (ANATIL, 1-jild, 606-bet).

Necha mo'r esang baxt o'lub rahnamun,

Sanga ajdaholarni qilg'ay zabun (Saddi Iskandariy, 43-bet).

Ma'nosi: *...chumolichalik joning bo'lmasa ham baxt rahnamolik qilib, qarshingda ajdaholar zabun bo'ladi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 45-bet).

O'TILda *zabun* so'zining yuqoridagi ma'nolariga qo'shimcha *nochor*, *ilojsiz*; *mushkul*, *og'ir*, *tang* kabi ma'nolari ham keltirilgan (O'TIL, 1-jild).

Zahrnok sifat turkumiga tegishli leksema bo'lib, *zaharli*, *zahar aralashgan* kabi ma'nolarni ifodalaydi. ANATILda zahrnok leksemasining izohi berilmagan. Lekin forscha-ruscha lug'atda *zahrnok* so'zining ma'nosi *zahrolud* so'zi anglatgan ma'noni anglatishiga ishora qilingan. Ushbu lug'atda *zahrolud* leksemasining *zaharli*, *zahar aralashgan* kabi ma'nolari keltirilgan [2,773].

Bo'lub lola qon, sabza tig'i halok,

Giyohi dog'i sarbasar zahrnok (Saddi Iskandariy, 40-bet).

Tabdili: *Lola qon-u, sabzalarining qirralari halokangez bo'lib, undagi har bir giyoh boshdan-oyoq zahrnok edi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 43-bet).

XULOSA

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, barcha so'z turkumlari kabi sifat ham Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ko'p uchraydi. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida boshqa turkumdagi so'zlar qatorida sifatlar haqida ham so'z yuritib, ularning nutqni boyitishdagi rolini

TILSHUNOSLIK

batafsil tahlil qilib bergan edi. “Saddi Iskandariy” dostonidagi forsiy sifatlar hamda ular asosida mavhum ma’noni ifodalovchi otlar hosil qilinishi mumkinligi ham yuqoridagi misollardan ayondir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: Университет, 2009. –Б.88.
2. Рубинчик Ю. Персидско-русский словарь. I том, -Москва: Русский язык, 1983. 653-с.
3. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ. –Душанбе, 2008. Ҷилди 1. –С.450.
4. Шарафиддинов О. Алишер Навоий. Ғафур Ғулом номидаги бадиий нашриётию. –Тошкент, 1971. – Б.187.
5. Z.Alimova. [Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Ganj” va “Gavhar” istilohlari bilan bog’liq leksemalar xususida](#). FarDU Ilmiy xabarlar jurnali, 2024, № 3. –Б.907-912.
6. Z.Alimova. [Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi “Zar” va “Zarra” asoslari bilan bog’liq leksemalar xususida](#). FarDU Ilmiy xabarlar jurnali, 2024, №5. –Б.198-201.